



5–7 – SINFLARDA INGLIZ TILI TA'LIMIDA 4K KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK ASOSLARI

Begmurodova Mahliyo Kamoliddin qizi

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada 5–7-sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ingliz tili ta'limi jarayonida 4K kompetensiyalarini (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya) shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari hamda ularni ta'lim amaliyotiga samarali integratsiyalash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalari, ingliz tili ta'limi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, psixologik-pedagogik yondashuv

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В 5–7 КЛАССАХ.

Аннотация: В статье научно обоснованы психологопедагогические основы формирования компетенций 4К (критическое мышление, креативность, сотрудничество и коммуникация) у учащихся 5–7 классов в процессе обучения английскому языку и механизмы их эффективной интеграции в образовательную практику.

Ключевые слова: компетенции 4К, обучение английскому языку, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникативная компетенция, психологопедагогический подход

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING 4C COMPETENCIES IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION IN GRADES 5–7.



Abstract: *The article scientifically substantiates the psychological and pedagogical foundations for developing 4K competencies (critical thinking, creativity, collaboration, and communication) in 5–7 grade students during English language teaching and presents mechanisms for their effective integration into educational practice.*

Keywords: *4K competencies, English language teaching, critical thinking, creativity, collaboration, communicative competence, psychological and pedagogical approach*

KIRISH

XXI asrda global mehnat bozori va axborot jamiyati sharoitida ta'lim tizimidan o'quvchilarda nafaqat fan bilimlarini, balki universal, transfer qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirish talab etilmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida bunday kompetensiyalar 4K modeli (Critical thinking, Creativity, Collaboration, Communication) orqali ifodalanib, u zamonaviy shaxsning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishining asosiy mezon sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, ingliz tili ta'limi 4K kompetensiyalarini shakllantirish uchun eng samarali pedagogik muhitlardan biri hisoblanadi, chunki til o'rganish jarayoni bevosita muloqot, hamkorlik, muammoli vaziyatlar va ijodiy faoliyatga asoslanadi.

Xalqaro miqyosda UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Education 2030: Incheon Declaration" hujjatida ta'limning asosiy vazifasi sifatida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi belgilangan.¹ OECD tomonidan amalga oshirilayotgan PISA tadqiqotlarida ham o'quvchilarning bilimni qo'llay olish, muammo yechish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari asosiy baholash ob'ekti sifatida qaralmoqda.² Shuningdek, World Economic Forum hisobotlarida XXI asrda eng muhim ko'nikmalar qatorida aynan tanqidiy fikrlash, kreativlik va kommunikatsiya yetakchi o'rinlarni egallashi ilmiy asoslangan.

¹ UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – 18–33-b.

² OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 102–128-b.



Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, 5–7-sinflar o'quvchilari (10–13 yosh) shaxs rivojlanishining muhim bosqichida bo'lib, bu davrda mantiqiy tafakkur, refleksiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir va mustaqil qaror qabul qilish jarayonlari faol shakllanadi. Piaget, Vygotskiy, Bruner kabi olimlar ta'kidlaganidek, aynan o'rta bo'g'in davrida ta'lim jarayonini to'g'ri psixologik-pedagogik asoslash o'quvchilarning keyingi akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilab beradi. Shu sababli 5–7-sinflarda ingliz tili ta'limida 4K kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni psixologik qonuniyatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni modernizatsiya qilish, chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet tillarini o'rganishni ommalashtirishga qaratilgan qaror va farmonlarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va kompetensiyaviy ta'limni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning kommunikativ, ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy natija sifatida qayd etilgan.

Shunga qaramay, amaliy tajriba va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5–7-sinflarda ingliz tili darslarida 4K kompetensiyalarini shakllantirish ko'pincha metodik jihatdan tizimlashtirilmagan, ularning psixologik-pedagogik asoslari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lmagan metodlardan foydalanish, 4K komponentlarining fragmentar qo'llanishi kuzatiladi.

Mazkur holat 5–7-sinflarda ingliz tili ta'limida 4K kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois ushbu mavzu xalqaro ta'lim tendensiyalari va O'zbekiston ta'lim siyosati talablariga to'liq mos keluvchi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida 4K kompetensiyalari (Critical thinking, Creativity, Collaboration, Communication) masalasi yetakchi ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetensiyalarni shakllantirish ayniqsa chet tillarini, jumladan, ingliz tilini o'qitish jarayonida samarali amalga oshiriladi.

Xalqaro pedagogik tadqiqotlarda 4K kompetensiyalari ta'lim natijalarining integrativ modeli sifatida izohlanadi. J. Trilling va C. Fadel tomonidan ishlab chiqilgan "21st Century Skills" konsepsiyasida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya zamonaviy ta'limning asosiy ustunlari sifatida asoslab berilgan.³ Mualliflar ta'kidlashicha, aynan til ta'limi jarayoni ushbu kompetensiyalarni tabiiy va uzviy shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, P. Griffin, B. McGaw va E. Care tadqiqotlarida 4K kompetensiyalarining o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ijobiy ta'siri ilmiy dalillar bilan isbotlangan.

Psixologik-pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan, L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi hamda J. Brunerning kognitiv rivojlanish konsepsiyasi 4K kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy asoslarini belgilab beradi.⁴ Ushbu nazariyalarga ko'ra, o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat olib borishi, muloqot jarayonida bilimlarni egallashi va ijodiy vazifalarni bajarishi ularning intellektual rivojlanishini tezlashtiradi. Bu jihatlar ayniqsa 5–7-sinf o'quvchilariga xos bo'lib, mazkur yosh davri abstrakt fikrlash va refleksiv faoliyatning faol shakllanish bosqichi hisoblanadi.

Chet tillarini o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarda 4K kompetensiyalarining ingliz tili ta'limidagi o'rni alohida tahlil qilingan. J. Richards va T. Rodgers kommunikativ yondashuv doirasida til o'rganish jarayoni faqat lingvistik bilimlarni emas, balki o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ faolligini

³ Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009. – 63–91-b.

⁴ Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 79–103-b.



rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.⁵ D. Nunan va H. Brown ishlarida esa ingliz tili darslarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va loyiha faoliyati orqali tanqidiy fikrlash hamda ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

So'nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar ham 4K kompetensiyalarini ingliz tili ta'limiga integratsiyalashning samaradorligini tasdiqlamoqda. Xususan, OECD doirasida olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning hamkorlikda muammo yechish qobiliyati ularning til kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan. Bu esa ingliz tili darslarida hamkorlik va kommunikatsiyani markazga qo'ygan metodlarning ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv, chet tillarini o'qitishda kommunikativ va interfaol metodlarni joriy etish masalalari keng yoritilgan. Xususan, pedagogika va chet tillarini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va nutqiy faolligini rivojlantirish ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda 4K kompetensiyalarining psixologik-pedagogik mexanizmlarini aynan 5–7-sinflar kesimida kompleks tahlil qilish masalasi yetarlicha yoritilmagan.

Adabiyotlar tahliliga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro ilmiy manbalarda 4K kompetensiyalarining nazariy asoslari va umumiy pedagogik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim sharoitida, xususan, 5–7-sinflarda ingliz tili ta'limiga moslashtirish, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik jihatdan asoslash zarurati saqlanib qolmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida 5–7-sinf o'quvchilarida ingliz tili ta'limi orqali 4K kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari nazariy

⁵ Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 87–110-b.



jihtadan tahlil qilindi. Olingan natijalar 4K kompetensiyalarini integratsiyalash o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki ularning psixologik va ijtimoiy faolligini ham sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, 5–7-sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi, asosan, muammoli savollar, matn asosida tahliliy topshiriqlar hamda bahs-munozarali mashg'ulotlar orqali ta'minlandi. Ushbu metodlar o'quvchilarning ingliz tilidagi matnlarni anglab o'qish, fikrini asoslash va xulosalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Natijada o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va mustaqil fikrlash darajasi oshgani kuzatildi.

Ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishda rol o'yinlar, loyiha ishlari va kreativ yozma topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etdi. 5–7-sinflarda yosh xususiyatlariga mos bunday faoliyatlar o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirib, ingliz tilida erkin va noodatiy fikr bildirishiga imkon yaratdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodiy topshiriqlar muntazam qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning darsga qiziqishi va o'ziga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada oshgan.

Hamkorlik kompetensiyasi ingliz tili darslarida juftlik va kichik guruhlarda ishlash orqali shakllantirildi. Guruhiy topshiriqlar o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini kuchaytirib, o'zaro muloqot va fikr almashuv jarayonlarini faollashtirdi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarda mas'uliyat, tinglash madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida dialogik va monologik nutqqa yo'naltirilgan mashqlar, autentik materiallar hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanildi. Natijalar ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan psixologik to'siqlar kamayganini, o'quvchilarning nutqiy faolligi va erkinligi oshganini ko'rsatdi. Ayniqsa, 5–7-sinflar kesimida kommunikativ mashg'ulotlarning samaradorligi yuqori bo'lib, bu yosh davrida muloqotga ehtiyoj kuchli ekanligi bilan izohlanadi.



Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy izlanishlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, 4K kompetensiyalarini ingliz tili ta'limiga integratsiyalash samaradorligi tasdiqlandi. Olingan ma'lumotlar UNESCO va OECD tadqiqotlarida qayd etilgan xulosalar bilan uyg'unlik kasb etib, kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim sifati va natijadorligini oshirishdagi muhim rolini yana bir bor tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 5–7-sinflarda ingliz tili ta'limida 4K kompetensiyalarini (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya) shakllantirish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Ingliz tili darslarida 4K kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida joriy etish o'quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik asoslar ingliz tili ta'limida o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi, refleksiv faoliyati va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, 5–7-sinflarda 4K kompetensiyalariga yo'naltirilgan interfaol metodlar tizimli qo'llanilganda, o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari ingliz tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish davlat ta'lim standartlari va xalqaro ta'lim tendensiyalari bilan uyg'un ekanligini tasdiqladi. Bu esa 4K kompetensiyalarini shakllantirishni ingliz tili darslarining muhim natijaviy ko'rsatkichi sifatida belgilash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Ingliz tili darslarini loyihalashda 4K kompetensiyalarini asosiy maqsad sifatida belgilash, ya'ni har bir mashg'ulot mazmunida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiyani rivojlantiruvchi topshiriqlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.



2. 5–7-sinflar uchun ingliz tili darsliklari va o‘quv-metodik majmualarini takomillashtirish, ularga 4K kompetensiyalariga yo‘naltirilgan muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari va ijodiy topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish zarur.

3. Ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish, xususan, 4K kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

4. Baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, ya‘ni o‘quvchilarning faqat til bilimlarini emas, balki ularning tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativ faoliyatini ham baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

5. Ingliz tili ta‘limida psixologik omillarni hisobga olish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish orqali 4K kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish zarur.

6. Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda 4K kompetensiyalarini ingliz tili ta‘limida raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash, shuningdek, boshqa fanlar bilan fanlararo yondashuv asosida rivojlantirish masalalarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 2006. – 97–115-b.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 48–72-b.
4. Davlat ta‘lim standarti. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi XTV, 2021. – 14–29-b.
6. OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 102–128-b.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 87–110-b.



8. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009. – 63–91-b.
9. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – 18–33-b.
10. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 79–103-b.